

Narbayeva Xosiyat

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Onomastikaning Antroponimika yo'nalishini badiiy asarlarda tahlil qilish orqali asarlarda qo'llanilgan har bir antroponimning maqsadi va ma'nosini anglaymiz. Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'rlerida qo'llagan antroponimlar haqida ma'lumot berildi.

Kalit so'zlar: Onomastika, antroponim, ism, familiya, Abdulla Oripov, tilshunoslik.

Abstract: By analyzing the anthroponymic direction of onomastics in artistic works, we understand the purpose and meaning of each anthroponym used in the works. This article provides information about the anthroponyms used by Abdulla Oripov in his poems.

Key words: Onomastics, anthroponym, name, surname, Abdulla Oripov, linguistics.

Hozirgi kunda yoshlarni kitobga jalb qilish uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tilshunosligimizda onomastika juda ham rivojlanmoqda. Xususan antroponimka, toponimika kabi yo'nalishlari yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirildi. Asarlarni onomastik jihatdan tahlil qilish orqali yozuvchi va shoirlar tomonidan qo'llangan shaxslarning nomlari orqali tarix sahifalari ochiladi desak ham bo'ladi. Antroponimlar yo'nalishida ism, familiya, taxallus, laqablar o'rganilgan. O'zbek antroponimikasining asoschisi E. A. Begmatov desak ham mubolag'a bo'lmaydi. E. Begmatov antroponimika sohasi bo'yicha "Nomlar va odamlar", "Kishi nomlari imlosi", "O'zbek ismlari imlosi", "O'zbek ismlari", "Ism chiroyi" kabi asarlar yozgan.

Ism – yakka shaxsni o'zgalardan oilada (avlodda va umuman jamiyatda) farqlash uchun unga go'daklik davrida beriladigan atoqli otdir. **Familiya** – (lotincha familiya – uy, oila, xonodon) – shaxsning ma'lum oilaga mansubligini ko'rsatadigan, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan rasmiy nomdir. **Taxallus** – (arabcha - o'zini-o'zi qutqarish, ozod qilish, xolos bo'lish) biror ijodkor (shoir, yozuvchi, rassom, olim va sh.k.) yoki siyosiy arbobning o'zi uchun tanlab olgan boshqa, ikkinchi nomi. **Laqab** – (arabcha). 1. Biror xususiyatga ko'ra, kishiga hazil qilib yoki massxaralab berilgan qo'shimcha nom; shuningdek, ma'lum maqsadda o'zgartirib olingan nom. 2. Esk. Ayn. Taxallus. 3. Esk. Ayn. Familiya.

Antroponim (yunoncha: antropos – antropos – opota – atoqli ot) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronym va boshqalar). Atoqli otlar tiplaridan biri.1

Tarixiy ismlar:

Dengiz ortin yoritdi ilk bor

Beruniyning aql mash'ali.

Kolumbdan bor alamim manim

O'zbekiston Vatanim manim.

Abu Rayhon Beruniy - Xorazmiyning qadimiyligi shahri bo'lmish Kat shahrinda tavallud topgan. U o'zining "Geodeziya" asarida 990-yil Kat shahrining geografik kengligini aniqlaganini yozadi. Abu Rayhon Beruniy Jurjonda "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarini yozadi, Beruniyni Mahmud G'aznaviy G'azna shahriga olib ketadi, G'aznaviy vafot etgach uning o'g'li shox Mas'udga bag'ishlab "Qonuni Mas'udiy" asarini yozadi. Beruniy "Hindiston", "Geodeziya", "Mineralogiya", "Astronomiya" kabi dunyoga mashhur asarlari yozdi. *Kolumb* – Italiyada tavallud topgan tadqiqotchi va dengizchidir. Hindiston uchun safarga chiqib, Amerikani kashf qiladi.

Do'stlarda, ko'kda yulduzlar emas,

U Ulug'bek ko'zidagi yosh.

Mirzo Ulug'bek Amir Temur avlodidan bo'lmish sultondir. Mirzo Ulug'bek "Ziji jadidi Ko'ragoniy" jadvalini ishlab chiqqan. Uning bizgacha "Ziji jadidi Ko'ragoniy", "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola", "Risolayi Ulug'bek", "Tarixi arba' ulus" kabi asarlari yetib kelgan.

Temur tig'i yetmagan joyni

Qalam bilan oldi *Alisher*.

Amir Temur- Temuriylar imperiyasini tuzgan, juda katta hududni bosib olgan sarkarda hisoblanadi. Amir Temurning "Temur tuzuklari" asariga juda ko'p harbiy ma'lumotlar kiritilgan. Shuningdek, fransuz adibi Marsel Brion Amir Temur haqida "Bizkim sohibqiron" asarini yozadi. Alisher Navoiy o'lmas "Xamsa"sinini yozdi. Alisher Navoiy O'zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi. U o'zining "Xamsa" asarini turkiy tilida yozib, turkiy tilning imkoniyatlari qanchalar kengligini aniqlab berdi. Bu she'riy satrlardagi ma'no so'zning kuchi desak ham bo'ladi. Amir Temur yer sharining yarmini egallagan bo'lsa, Alisher Navoiy yozgan asarlari orqali butun dunyoga taniladi.

Seni Chingiz g'azabga to'lib

Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan.

Jaloliddin samani bo'lib,

Sakrab o'tdi Amudaryodan.

Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar sulolasining shohlaridan bo'lmish Muhammad Xorazmshohning o'g'li hisoblanadi. Jaloliddin Manguberdi Chingizxon bilan bir necha marotaba

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

jang qiladi. 1221-yilgi jangda mag‘lubiyatga uchraydi, keyin Amudaryo kechib o‘tadi va Chingizxonni ham lol qoldiradi.

Devlar qutulgandek *Sulaymon* o‘lib,

Bezitgin tuyg‘ular har yon yuguray.

Sulaymon alayhissalom payg‘ambar bo‘lganlar. Bu antroponim teonimmlarda o‘rganiladi.

Zamonaviy ismlar:

Ko‘klamingdan olib sururni,

Dovruq soldi ustoz *Olimjon*,

G‘afur G‘ulom tuygan g‘ururni

Qilmoq mumkin dunyoda doston.

Hamid Olimjon o‘zbek she’riyatining zabardast vakillaridan biri hisoblanadi. Uning “Oygul bilan Baxtiyor”, “Zaynab va Omon”, “Semurg”, “Tong shabadasi”, “She’rlar” kabi asarlar muallifi hisoblanadi. *G‘afur G‘ulom* “Shum bola” asarining muallifi bo‘lib, “Netay”, “Yodgor”, “Sog‘inish” asarlarining muallifi hisoblanadi.

Qonim oqli Dansigda manim,

Sobir Rahim yiqilgan chog‘da.

Sobir Rahimov Ikkinci jahon urushida katta jonbozlik ko‘rsatgan va general-major unvoniga sazovor bo‘ladi. 1945-yil 26-aprelida Sobir Rahimov turgan kuzatuv punktiga snaryad kelib tushadi va u yaralanadi va gospitalda vafot etadi.

Aytibsanki, onasizlik

Kelmasin hech o‘yiga.

Sarf qilingiz, menga emas,

Abdullaning to‘yiga.

Bu she’riy satrlarda Abdulla Oripov o‘zi haqida yozgan. Abdulla Oripov O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi muallifi hisoblanadi. Abdulla Oripov “Mitti yulduz”, “Onajon”, “Yurtim shamoli”, “Jannatga yo‘l”, “Haj daftari”, “Sohibqiron”, “Tanlangan asarlar”, “Hayrat” kabi asarlar muallifidir.

Chet el ismlarlari:

Shifokor bo‘lishni xohlading yakkash,

Boshqa kasbu kordan tamom kechgansan.

«Xudo ursin» degan kalomga o‘xshash,

Gippokrat nomiga qasam ichgansan.

Gippokrat yunon vrachi bo‘lib, “Bo‘g‘imlar haqida”, “Sinishlar haqida”, “Og‘ir hastaliklarda parvez haqida” kabi asarlar muallifidir.

Oddiy bir to‘pteparga qiyoslab ko‘rsang agar,

Gomer va Tolstoyning narxi bo‘larkan qancha?!

Gomer yunon shoiri va hikoyachisi, “Illiada” va “Odisseya” dostonlari muallifi. Lev Nikolayevich Tolstoy rus yozuvchisi bo‘lib, “Urush va tinchlik”, “Anna Karenina”, “Zulmat hokimiyati”, “Tirilish”, “Oilaviy baxt” kabi asarlar muallifi.

Abdulla Oripovning she’rlarida qo‘llanilgan antroponimlarning har biri yurtimiz tarixidan sado beradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tilshunoslikda asarlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish orqali ham adiblarning mahoratini, ham tarixni bilamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. B. Yo‘ldoshev O‘zbek onomastikasi masalalari Samarqand – 2011
2. M. Xudoyorova Onomastika Toshkent “Muxr-Press” 2020
3. T. Nafasov., V. Nafasova O‘zbek tili toponimlarining o‘quv lug‘ati Toshkent “Yangi avlod” 2007